



Glebe  
EDIT

filologiya fanlari doktori, professor  
Hamid G'ulomovich Ne'matov  
tavalludining 80 yilligiga bag'ishlanadi



**FILOLOGIK  
TADQIQOTLAR:  
MUAMMO VA YECHIM**  
mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman  
**MATERIALLARI**



2021-yil 22-noyabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH DEPARTAMENTI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI  
BUXORO VILOYATI PEDAGOG XODIMLAR MALAKASINI OSHIRISH  
VA QAYTA TAYYORLASH INSTITUTI**

**“FILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM”  
mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman  
materiallari**  
(filologiya fanlari doktori, professor Hamid G‘ulomovich Ne‘matov  
tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlanadi)

**«ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ПРОБЛЕМА И  
РЕШЕНИЕ»**  
материалы международной научной конференции  
(доктор филологических наук, профессор Хамид Гуломович  
Нематов  
посвящается к 80-летию со дня рождения)

**“PHILOLOGICAL RESEARCH: PROBLEM AND SOLUTION”  
international scientific conference**  
(doctor of Philology, Professor Hamid Gulomovich Nematov  
dedicated to the 80th birthday anniversary)

**Buxoro – 22-noyabr, 2021-yil**



Kumar Rauaj kizi Perdebaeva. Gazeta dizayniniń onıń mazmunına tásiri .....	195
Алима Кудияровна Пирниязова. К вопросу национально-культурной семантики фразеологизмов каракалпакского языка .....	198
Mahmud Rajabov. Til korpusi, uning mohiyati va korpusga bo'lgan ehtiyoj .....	201
М.Раҳимова. Номема ва семеманинг ўзаро муносабати .....	204
Умида Раҳимова. Ҳамид олимжон ижодида кофия .....	206
Doniyorbek Rustamov. Jadid ma'rifatparvari Mahmudxo'ja Behbudiyning til borasidagi qarashlari .....	208
Nigora Oxunjonovna Safarova, Miraziz Ikromovich Ismatullayev. Latifalarning boshqa og'zaki epik hamda kulgiga asoslanuvchi janrlar bilan munosabati .....	213
Сафарова Ҳилола Охунжонова. Куёшни – иссиқни соғиниш изтироби .....	216
Султанова Ш. Грамматик терминлар тараққиётига оид .....	218
Maftuna Zoir qizi Safarova. Alisher Navoiy ijodida etnonimlarning qo'llanilishi .....	221
Mohinur Raxmiddinova Sayliyeva. Margaret Mitchelning "Shamollarda qolgan hislarim" asaridagi frazeologizmlarning funksional-diskursiv xususiyatlari .....	224
Sobirova Dilnoza Rasulovna. Tibbiy reklamalarning struktur xususiyatlari .....	227
Mahira Rasulevna Saidova, Jasmin Ulug'bekovna Kurbanova. Rus guruhlarda sinonimlar vositasida nutq madaniyatini shakllantirish .....	229
Ш.Ҳ.Шаҳобиддинова, Д.А.Рустамов. Шахслараро мулоқот тизими .....	230
Ergasheva Maftuna Bayramaliyevna. Jon Steynbekning "Javohir" asari xususida .....	232
Aziza Raimjanovna Shaymardanova. O'zbek tilining intralingval lakunalari .....	234
Отабек Улашевич Шукуров. Термин неологизмлар хусусида .....	237
Гули Ибрагимовна Тоирова. Ўзбек тилининг миллий корпусини яратишда лингвистик моделлардан фойдаланиш .....	239
Ш.Д.Турдикулов. Сурхондарё митраумлари топонимиканинг ўрганиш объекти сифатида .....	244
Zulfiya Nozimovna To'yeva. Bayon – ona tili ta'limining pragmatik-didaktik vositasi .....	246
Қаҳрамон Раҳимбоевич Тўхсанов. Архаизм ва таржима .....	250
Tojiyeva Nargizaxon Elmurod qizi, Fattoyev Shohjahon Yorqin o'g'li. O'zbek tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalaninshning ahamiyati .....	254
Усмонова София Алимовна. Апеллятив ва топоним .....	256
Xamidov Mansur Abdumannobovich. O'zbek tili paremiologik birliklarida somatik so'zlar salmog'i .....	258
Nigora Xudoyorova, Xumora Ismoilova. "Devoni Foni"da shoir ijodiy uslubi .....	259
Nurislom Iskandarovich Khursanov. Semantic groups of behavioral verbs in uzbek and english .....	262
Ўғлоной Алламуродовна Худайназарова. Инглиз тилидаги мифоним компонентли фразеологизмларнинг сиёсий доирада қўлланилиши .....	264
Umida Ibrohim qizi Yahyoieva. -Ona affiksli yasama ravishlar, ularning lug'atlardagi ifodasi .....	266
Дилором Нигматовна Юлдашева. Фразема и ее синтаксический анализ .....	268
Юлдошева Нилуфар Эргашевна. Содда гапнинг структур тузилишини ўрганишга доир ёндашувлар .....	271
Dildora Yunus qizi Yusupova. Shoira Halima Xudoyberdiyeva she'riyati tilini o'rganish zarurati .....	275



жиҳатдан бир-биридан кескин фарқ қилмайди. Ўзбек тилшунослиги, хусусан, грамматикасига доир терминлар шаклланишида рус тилининг таъсири катта бўлгани маълум. Албатта, инглиз тилида қўлланиладиган грамматик терминлар асосан, латин тилига ёки юнон тилига мансубдир.

#### Адабиётлар:

1. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. Тўплам. Тошкент, 2017. – 384 бет.
2. Йўлдошев Б. Ўзбек лингводидактикаси тараққиётида ўқув лексикографиясининг ўрни масаласига доир // НавоийДПИ ахборотномаси, 2015, 1-сон. – Б. 66-72.;
3. Йўлдошев Б. Ўзбек тилшунослигининг мустақиллик йилларидаги тараққиёти хақида//Хорижий филология. №3, 2016 йил. –Б. 9-15.
4. Uluqov N. Lingvistik kompetentlikni shakllantirish omillari. “Til va adabiyot ta’limi”, 2018-yil, 6-son. –B.16-18.
5. Менглиев Б.Р., Бахриддинова Б.М. Ўқув лугатчилиги: талаб ва эҳтиёж / «Айюб Фулом ва ўзбек тилшунослиги масалалари». Илмий тўплам. – Тошкент, 2009. – Б.34-41
6. Қиличов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Бухоро: 1999., 226 б. –Б.125-126
7. Герд, А. С. Терминологическое значение и типы терминологических значений Текст. / А. С. Герд // Проблематика определений терминов в словарях разных типов. Л. : Наука, 1976. - С. 101-107.
8. Глинкина, Л. А. Историко-лингвистический комментарий фактов современного русского языка Текст. / Л. А. Глинкина, А. П. Чередниченко. -М. : Флинта. Наука, 2005. 208 с.
9. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО КОРПУСА В ОБУЧЕНИИ ЯЗЫКУ(The use of the linguistic corpus in language teaching)  
ЛР Раупова, РР Сайфуллаева, ХХ Хамраева, НМ Зарипбоева, Academy, 2019 - 1  
цитирование[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=nkh8lwoAAAAJ&citation\\_for\\_view=nkh8lwoAAAAJ:d1gkVwhDpl0C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=nkh8lwoAAAAJ&citation_for_view=nkh8lwoAAAAJ:d1gkVwhDpl0C)
10. Logical and grammatical relations in word categories: the factor of difference and incarnation КХ Сафарова Гузал Кудратовна, Раупова Лайло Рахимовна, Ботирова Адиба, Мусулманова Наргиза, International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020<https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=17387754250602338412&btnI=1&hl=ru>

## ALISHER NAVOIY IJODIDA ETNONIMLARNING QO‘LLANILISHI

DOI: 10.53885/edinres.2021.99.82.053

Maftuna Zoir qizi Safarova  
BuxDU o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** *Etnonimlar o‘zbek tilida uzoq o‘tmishda yuzaga kelgan nomlar sanaladi. Shuning uchun ham qabila, urug‘ va shahobchalarining nomlarida ko‘plab qadimiy turkiy tilga, uning uzoq tarixiga oid leksemalar saqlanib qolgan. O‘zbek etnonimlari uzoq davr taraqqiyotini boshidan kechirgan bo‘lib, ularda qadimiy turkiy qabila va urug‘lar o‘zbeklarning ko‘hna davr ajdodlari amal qilgan urf-odatlar, falsafiy-diniy e‘tiqodlar, qadimiy madaniyat izlari, so‘z yasash usullari o‘z ifodasini topgan.*

**Kalit so‘zlar:** *etnonimlar, qabila, urug‘ va shahobchalarining nomlari, davr taraqqiyoti*

Etnonimlar haqidagi qarashlar bir necha davrlar oldin ham bo‘lganligini qimmatli manbalar orqali bilib olishimiz mumkin. Turkiy etnonimlar haqidagi ma‘lumotlar qadimgi turkiy tilga oid yozma bitiklarda, M.Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida, Mir Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abulg‘oziy Bahodirxonning asarlarida, shuningdek, o‘rta asrlarga mansub arab va fors tillarida yozilgan bir qator tarixiy bitiklarda saqlanib bizgacha yetib kelgan [3;20].



Bulardan tashqari, o'zbek xalqining urug' va qabilalari haqidagi materiallar Mirxondning "Ravzat us-safo", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" kabi mashhur tarixiy asarlarida ham aytib o'tilgan. Ammo bu materiallar to'liq o'rganilgan emas. Hazrat Alisher Navoiy tarix ilmi bilan maxsus shug'ullanmagan bo'lishiga qaramasdan, o'zbek xalqining tarixi haqida, xususan, uning etnografiyasi, o'zbek xalqining urug' va qabilalari, ularning o'sha davrda tutgan o'rni, mavqeyi haqida katta ma'naviy xazina qoldirgan deyishimiz mumkin.

Alisher Navoiy o'zining ko'pgina asarlarida o'zbek urug'lari, ularning nomlanish hamda kelib chiqish sabablari haqida fikr yuritgan, ayniqsa, uning "Chor devon"ida o'zbek xalqining urug' va qabilalariga ko'pgina qimmatli va har tomonlama e'tiborga arzirli fikrlarni aytib o'tgan. Masalan, Navoiyning

Ey Navoiy, manga bas ul sanami lo'livash,  
Bekka *qipchoqu og'ar*, shahg'u *qiyotu bilgut*.

Yoki: Menga tilab husn, vale shoh tilab asl-u nasab,  
Menga lo'li bila hindu, anda *qo'ng'irotu qiyot*.

kabi misralari o'zbek xalqining *qipchoq, og'ar, qiyot, bilgut, qo'ng'irot* singari urug'lari haqida ma'lumot berish bilan bir qatorda, shu urug'larning o'sha davrdagi temuriylar davlatida tutgan mavqeyi xususida ham qimmatli tarixiy ma'lumotlar bermoqda. Bu ma'lumotlar o'zbek xalqining tarixini, urug' va qabilalarini, ularning tarkibidagi etnik guruhlarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Navoiyning ushbu baytlari ham o'zbek xalqining urug' va qabilalarini o'rganish jihatidan ahamiyatlidir:

Sanamlar husnidin maqsud yor o'lmish Navoiyg'a,  
Agar *barlos*, agar *tarxon*, agar *arlot*, agar *sulduz*.

Chun Navoiy jonig'a ofat erur lo'livashe,  
Sog'inur g'uli biyobon ko'rsa *qo'ng'irotu qiyot*.

Navoiy, ista mazohirda chehram maqsud,  
*Arab* va gar *chig'atoy*, yo'qsa *turkmanu xaloj*.

Ey Navoiy, chu gadosen, senu bir lo'livash,  
Shohga mirzou mirak, xonga *qiyotu qo'ng'irot*.

Yuqorida qayd qilib o'tilgan *qipchoq, og'ar, qiyot, bilgut, qo'ng'irot, barlos, tarxon, arlot, sulduz, arab, chig'atoy* kabi so'zlar o'sha davrda ma'lum bir qabila va urug' nomi ekanligi misralar orqali ma'lum bo'ladi. Toponimist olim T.Nafasovning "Qashqadaryo qishloqnomasi" kitobida keltirilgan ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, unda Navoiy baytlarida keltirilgan bu so'zlar etnonim ekanligi o'z isbotini topadi. Masalan, yuqoridagi baytda qo'llangan *qipchoq* so'zi turkiy xalqlarning eng yirik qabilalar va xalqlar ittifoqi, o'zbek xalqi tarkibidagi eng yirik va ko'p sonli elat bo'lishgan. Qipchoqlar O'zbekiston hududiga, asosan, 16-asrdan boshlab ko'chib kelishgan. Qipchoq – viloyatimiz hududiga 16-asrda Dashti Qipchoqdan kelgan va qishloq joylariga o'rnashgan aholining umumiy nomi. Qipchoqlarning qoratikan, o'lmas, elaton, og'im, chiyal, qoramo'yin kabi urug'lari nomlari viloyatimizda qishloq nomlariga aylanganligini ko'rish mumkin. Abulg'oz Bahodirxonning yozib qoldirishicha, "qayonning ma'nosi seliki, tog'din kuch birlan yildam quyiga kelgay. Elxonning o'g'li tez kishi erdi. Aning uchun Qayon derlar". Matndan ma'lumki, Qayon – kishi ismi. Qayon so'zining jamlik shakli qiyot. Qayonning avlodi – qiyot. Qiyot – umumturkiy qabila nomi ekanligi anglashiladi.



Bulardan tashqari, Alisher Navoiyning "Chor devon"i, ba'zi ilmiy tanqidiy asarlari va "Xamsa" asarida, shuningdek, Boburning "Bobornoma"sida "o'zbek" so'zi(etnonimi)ning anglatgan ma'nolari, "o'zbek" so'zi anglatgan tushunchaning o'sha davrdagi chegarasi va shuningdek, "o'zbek", "turk", "chig'atoy" singari terminlari ma'nolarining ochilishiga yordam qiluvchi faktlar ham borki, ularning hammasini yig'ib, qunt bilan o'rganish xalqimiz va tilimizning tarixini to'laroq yoritish sohasida juda ajoyib samaralar berishi shubhasiz. Masalan, Alisher Navoiy bir joyda "o'zbek mo'g'ul o'lg'ay aning ollida musulmon" deb "o'zbek" etnonimi bilan "mo'g'ul" etnonimini bir qo'yadi. Bu esa biz yuqorida Rashididdinga tayanib qisman eslatib o'tgan fikrni, ya'ni o'zbek qabilalaridan bir qismining mo'g'ul deb atalib kelganligi ularning kelib chiqish jihatidan mo'g'ul bo'lganliklari uchun emas, balki ular ilgari Mo'g'iliston hududida yashaganliklari uchun va mo'g'ullar boshliq bo'lgan siyosiy birlashmaga qo'shilganliklari uchundir degan fikrni tasdiqlashga yordam beradi [1;38].

Shoir she'rlarining ba'zi bir til xususiyatlari (masalan: "ollindaki", "allida" kabilar) Alisher Navoiy tilining ko'p jihatdan hozirgi Buxoro atrofidagi shevalarga va barlos shevalariga o'xshab ketishidan darak beradi. Bu, albatta, etnonimlar talaffuzida va bugungi kungacha yetib kelishida ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Hazrat Navoiy etnonimlarning turli xil variantlarda uchrashi yoki asl ma'nosidan uzoqlashib bugungi kunda tushunarsiz holga kelib qolganligini shevalar ta'sirida ekanligini ham alohida ta'kidlab o'tadi. Shunday ekan, xalqimiz va tilimizning tarixini, ularda yuz bergan barcha o'zgarishlar, har xil davrda yuzaga kelgan sharoitlar hamda har xil jarayonlar bilan uyg'un tarzda o'rganib chiqish kerak.

Navoiy asarlari orqali uning zamonida Andijon bilan Buxoro, Samarqand va hatto, Hirot kabi shaharlarning shevalari o'rtasida farqlar oz bo'lgan bo'lsa kerak. Vaqt o'tishi bilan har xil sharoit va har xil tarixiy o'zgarishlar natijasida (xususan, qipchoq-o'zbeklarning O'rta Osiyoga har xil davrda, turli miqdorda kelib kirishi va har xil territoriyada turli vaqtda o'troqlashib, o'sha yerdagi aholi bilan munosabatga turlicha kirishuvi natijasida) bu shaharlarning shevalario'rtasidagi farqlar tobora orta brogan va ular o'rtasidagi ajralish tobora kuchaya brogan bo'lishi mumkin. O'rni kelganda shuni aytish kerakki, ba'zi olimlar, hatto, Navoiy "O'zbek" degan so'zni ishlatgan emas, deb da'vo qiladilar [1;31].

X.Doniyorovning mulohazalariga ko'ra, ba'zi olimlar, Navoiy "o'zbek" degan so'zni bilmagan, ana shuning uchun u o'z asaralarida bu so'zni ishlatgan emas, deb da'vo qiladilar. Masalan, M.K.Hamroyev 1963-yilda Olmaotada nashr qilgan "Turk she'riyatining tuzilish asoslari" kitobining 14-betida "Alisher Navoiyning asarlarida "o'zbek" so'zining uchramasligi hammaga ayondir", deb yozadi. Holbuki, bu fikr haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Chunki, Alisher Navoiyning asarlarida "o'zbek" so'zi bir necha martalab qo'llangan. Chunonchi, "Sa'ddi Iskandariy" dostonida Doroga qarshi kurashgan bir qancha qabila va elatlar qatorida Alisher Navoiy o'zbeklarning ham qatnashganligini aytadi:

Samarqanddin toki sarhadi Chin  
Burong'or ango hayli mashriq zamin.  
Yuz ellik ming ul sori qalmoq ham  
Yana yuz ming o'zbek, mo'g'ul, barlos ham.

Faqat bugina emas, Alisher Navoiy qipchoq-o'zbeklarni sodda, mehnatkash kishilar sifatida shoh-u tojlarga qarama-qarshi qo'yadi va o'ziga eng yaqin mehribon suyanchiq kishilar deb biladi:

Shohu toju xil'ate kim men tomosha qilg'ali  
O'zbekim boshida qalpoq, egnida shirdog'i bas.



Mazmuni: Men shoh, toj va xil'atlarni tomosha qilamanmi (ularning menga nima keragi bor), menga boshida qalpoq (do'ppisi), egnida shirdog'i (yaktagi) bo'lgan o'zbekimning o'zi bo'lsa bas [2;74].

Hazrat Alisher Navoiyning bizga qoldirgan boy ma'naviy xazinasini orqali barcha sohalar uchun qimmatli ma'lumotlar olishimiz mumkin. Xususan, o'zbek tili lug'at fondining bir qismini tashkil etuvchi, bugungi kunda ma'nosi biroz unutilayotgan urug', qabila nomlari xususida ham ma'lumotlar uchrashi haqida yuqorida bilib oldik. Bu singari faktlar o'zbeklarning temuriylar davlatidagi mavqeyini o'rganishda, shubhasiz, muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda etnonimlarni ilmiy jihatdan o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya, madaniyat, axloqshunoslik, ruhshunoslik kabi sohalar uchun ham ahamiyatlidir.

#### Adabiyotlar:

1. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968.
2. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – 174 б.
3. Маркаев К. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи. Диссер. – Тошкент. 2007. – 205 б.
4. Kilichev B.E. Uzbek national folk tales and the nature of anthroponyms in live communication. Middle European Scientific Bulletin, Volume 12 May 2021.
5. Kilichev B.E. Lingvoculturological characteristics of anthroponyms used in artistic works. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. Volume 2, Issue 5 May, 2021.
6. Kilichev B.E., Safarova M.Z. Toponyms formed on the basis of nation names. International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) ISSN:2509-0119. Taraz.2021 B. 104-107.
7. Kilichev B.E., Safarova M.Z. Bukhara region's typical toponyms transformed by means the names of nations. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science <http://T-Science.org> Philadelphia, USA. 2021. B.43-46.

### MARGARET MITCHELLNING "SHAMOLLARDA QOLGAN HISLARIM" ASARIDAGI FRAZEOLOGIZMLARNING FUNKSIONAL-DISKURSIV XUSUSIYATLARI

DOI: 10.53885/edinres.2021.29.16.054

Mohinur Raxmiddinovna Sayliyeva  
BuxDU Xorijiy tillar fakulteti  
Ingliz adabiyoti va stilistika kafedrası  
o'qituvchisi

**Annotatsiya.** *Ingliz tili ming yillik tarixga ega bo'lib, u davomida juda ko'p iboralar, nutqning maxsus turg'un birliklar to'plangan. Iboralarning ma'nosini tushunish, ularni nutqda to'g'ri ishlatish nutq ko'nikmalarini takomillashtirish va til madaniyatining yuqori ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, ushbu sohaga bo'lgan qiziqish juda katta bo'lgan. Frazelogik birliklarni o'rganish doimo katta ahamiyatga ega bo'lgan, shuning uchun ko'plab olimlar frazeologik birlikni aniqlash orqali frazeologiyaga o'z hissasini qo'shishga intilganlar.*

**Kalit so'zlar:** *frazelogik birliklarning qo'llanilishi, Margaret Mitchellning "Gone with Wind" asari*

Frazelogiya asoschisi shvetsariyalik olim Charlz Balli. Xo'sh, frazeologik birlik nima? Charlz Balli frazeologik birlikka umumiy ta'rif berdi: "tilda mustahkam o'rnashgan kombinatsiyalar frazeologik iboralar deb ataladi". Rus tilshunoslari Sergey Ivanovich Ozhegov va Natalya Yuliyevna Shvedova frazeologik birliklarni idiomatikaga yaqin mustaqil ma'noga ega barqaror ifoda sifatida ta'riflaydilar. Lev Lvovich Nelyubin frazeologik birlik (frazelogik birlik, frazeologik aylanma, frazeogramma) leksik jihatdan bo'linmaydigan, tarkibi va tuzilishi bo'yicha barqaror, ajralmas ibora, tayyor nutq birligi shaklida ko'paytiriladi, deb hisoblagan.